

BOLALAR HUQUQLARINI TA'MINLASH – MAKTABGACHA TA'LIMNING BOSH MEZONI.

Samarqand pedagogika instituti
„Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası
Ilmiy rahbar: dots Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna
II-bosqich magistranti
Egamova Madina Qobil qizi

Annotatsiya: Maskur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bola huquqlarini ta'minlashning mazmuni, ahamiyati va zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, ushbu jarayonda bola huquqlarining to'liq amalga oshirilishi ustuvor qadriyat sifatida qaralishi zarurligi asoslab beriladi. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiya, “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning tenglik, xavfsizlik, rivojlanish, fikr bildirish, sifatli ta'lim olish huquqlari yoritilgan.

Annotation: This article analyzes the essence, significance, and modern approaches to ensuring children's rights in the preschool education system. The preschool period is one of the most important stages in a child's personal development, and it is substantiated that the full realization of children's rights must be considered a priority value in this process. Based on the Convention on the Rights of the Child, the Law “On Preschool Education and Upbringing” of the Republic of Uzbekistan, and other regulatory–legal documents, the article highlights the rights of children to equality, safety, development, expression of opinions, and access to quality education in preschool institutions.

Аннотация: В данной статье проанализированы сущность, значение и современные подходы к обеспечению прав ребёнка в системе дошкольного образования. Дошкольный возраст является одним из важнейших этапов формирования личности ребёнка, и обосновано, что полное обеспечение прав детей должно рассматриваться как приоритетная ценность в этом процессе. На основе Конвенции о правах ребёнка, Закона Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании» и других нормативно-правовых документов раскрываются права детей на равенство, безопасность, развитие, выражение собственного мнения и получение качественного образования в дошкольных учреждениях.

Kalit so'zlar: bola, huquq, Konvensiya, maktabgacha, Qonun, tenglik, qadriyat, yosh, davr, ta'lim, tizim.

Keywords: child, rights, Convention, preschool, Law, equality, value, age, period, education, system.

Ключевые слова: ребёнок, право, Конвенция, дошкольное образование, Закон, равенство, ценность, возраст, период, образование, система.

Har bir mamalakat o'z farzandlarini ma'suliyatni his etadigan munosib fuqarolar bo'lib o'sishlari va ularni jamiyat taraqqiyotiga o'z ulushlarini qo'shishlariga katta umid bog'lagan. Har bir bola o'zini shaxs sifatida to'liq anglash, o'dob –axloq me'yorlariga rioya qilish, o'z haq-huquqlarini bilish va hatti harakatlarini to'g'ri baholay olish, o'z qadr- qimmatini bilish, o'z ma'daniy an'analari va milliy qadriyatlariga nisbatan g'urur, hurmat, qiziqish tuyg'ularini tarbiyalash vazifalarini aynan maktabgacha yoshdan boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiya berish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan qonun ustuvorligini

ta'minlash, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligini, huquqiy demokratik davlat barpo etishda yoshlarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy bilimi, madaniyati va ongi shakllantirib boriladi⁸. Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishning eng muhim bosqichlaridan biridir. Mazkur tizimda bola shaxsini tan olish, uning tabiiy ehtiyojlari va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish, eng avvalo, bola huquqlarining to'liq ta'minlanishini talab qiladi. Chunki aynan maktabgacha yoshda bolaning shaxsiyati shakllanadi, atrof-muhitni idrok etishga bo'lgan munosabati tarkib topadi va kelgusidagi ta'limga tayanch bo'ladigan asosiy ko'nikmalar rivojlanadi. Shunday ekan, bola huquqlarini himoya qilish va ta'lim jarayonida ustuvor qadriyat darajasiga ko'tarish davlat siyosati hamda pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Bola huquqlari universal ko'rinishga ega bo'lganligi sababli uning ahvolini yaxshilash yo'lidagi harakatlar, choralar butun jahon hamjamiyati darajasida, har bir alohida davlatda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham amalga oshirilmoqda.⁹ Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, „Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi Qonun shuningdek, qator davlat dasturlari, strategiyalar va normativ hujjatlar asosiy manba vazifasini o'tab kelmoqda. Ushbu me'yoriy hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti, sog'lig'i va rivojlanishini ta'minlash, ularning sha'ni, qadr-qimmatini va erkinliklarini hurmat qilish bo'yicha aniq talablarga ega. Shu bilan birga, har bir bola ta'lim olish, fikrlash, o'yin faoliyati, muloqotga kirishish, xavfsiz muhit va sifatli pedagogik yordam olish huquqlariga egaligi qayd etilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bola huquqlarini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri — bolaning individual rivojlanish sur'ati va qiziqishlarini hisobga olishdir. Har bir bola alohida shaxs sifatida e'tirof etilishi kerak. Ta'lim jarayonida barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratish, diskriminatsiya va kamsitishning har qanday ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik — ustuvor tamoyillardan biridir. Bola shaxsi sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozim¹⁰. Pedagogik faoliyatda bolalar o'rtasidagi tenglikka rioya qilish, ularni rag'batlantirish, ruhiy qo'llab-quvvatlash, o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatlarini yaratish orqali bola huquqlarining amalda ta'minlanishiga erishish mumkin. Bundan tashqari, bolaga qulay psixologik-pedagogik muhit yaratish ham huquqlarni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavfsizlik hissi, mehr-muhabbat, ishonch va emotsional barqarorlikni shakllantirish zarur. Tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi sog'lom muloqot, hurmatga asoslangan munosabat, qo'pollik va psixologik bosimning istalgan ko'rinishidan xoli bo'lishi ta'lim jarayonini samarali qiladi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik, ular bilan doimiy muloqot va bolalarning ehtiyojlarini birgalikda kuzatib borish ta'lim sifatini yanada oshiradi.

Bola huquqlarini himoya qilish faqat pedagoglarning vazifasi bo'lib qolmay, balki butun jamiyatning burchi ekanini alohida ta'kidlash lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi boshqaruv jarayonlarida ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik nazorati bola manfaatlarining ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

⁸ Maktabgacha pedagogika. Darslik.F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.A'zmova, M.N.A'zamov Toshkent-2019

⁹ Bola huquqlari. Darslik.Mo'minov A.R. va Tillabayev M.A Toshkent-2014

¹⁰ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya BMT bosh assambleyasi 1989.

Muassasalarda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, sifatli ovqatlanish, xavfsiz o'yin maydonchalari, zamonaviy o'quv-uslubiy resurslar mavjudligi bola huquqlariga to'la mos kelishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, davlat va nodavlat sektorlarning hamkorligini, budjet va grant dasturlari orqali qo'llab-quvvatlashni, pedagoglar malakasini uzluksiz oshirishni talab etadi. Bolaning xohishi va uning qiziqishini hisobga olish hozirgi kunda tarbiyachilar oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga tahdidlar, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi faktlari to'g'risida vakolatli organlarni xabardor qilishi shart¹¹. Bundan tashqari bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, bolaning sha'ni qadr qimmatini himoya qilish lozim¹².

Pedagogning kasbiy kompetensiyasi bola huquqlarini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biridir. Tarbiyachilar psixologiya, pedagogika, bolalar psixofiziologiyasi va huquqiy madaniyatga oid bilimlarga ega bo'lishi, zamonaviy interfaol metodlardan foydalana olishi zarur. Bola bilan ishlashda individual yondashuv, empatiya, pedagogik odob va tolerantlik tamoyillari ustuvor bo'lishi kerak. Pedagogning har bir so'zi, har bir harakati bola shaxsining rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimida bola huquqlarini ta'minlash — nafaqat pedagogik jarayonning asosiy talabi, balki, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, jamiyat taraqqiyotining garovi hisoblanadi. Bola huquqlarini hurmat qilgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish orqali biz sog'lom, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol va ma'naviy yetuk avlodni voyaga yetkazamiz. Maktabgacha ta'lim muassasalarida yaratilayotgan imkoniyatlar, pedagoglarning mahorati va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor bola manfaatlarini himoya qiluvchi mustahkam tizimni shakllantirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Bola huquqlarini ta'minlash har doim eng oliy qadriyat sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya BMT bosh assambleyasi 1989.
2. Bola huquqlari. Darslik. Mo'minov A.R. va Tillabayev M.A Toshkent-2014
3. Maktabgacha pedagogika. Darslik. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M.A'zmova, M.N.A'zamov Toshkent-2019
4. O'zbekiston Respublikasi,, Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida''gi Qonun O'RQ-561 16-dekabr. Toshkent -2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida'' Toshkent-2008

¹¹ O'zbekiston Respublikasi,, Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida''gi Qonun O'RQ-561 16-dekabr. Toshkent -2019.

¹² O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida'' Toshkent-2008